

ÖZBEKISTONDA QIMMATLI QOĞOZLAR BOZORINING ŞAKLLANIŞI VA UNING RIVOJLANIŞ BOSQIÇLARI

THE FORMATION AND STAGES OF DEVELOPMENT OF THE SECURITIES MARKET IN UZBEKISTAN

[1]Ikramov Akmalbek Ilxomjon öğli

[1]*"MFO PARTNERS HUB" MÇJ ta'sisçisi, mustaqil izlanuvçi.*
ORCID: *0009-0006-4814-3731,* ***G-mail:*** *ikramovakmalbek@gmail.com*

Annotatsiya Abstract

Uzb. - Mazkur maqolada mamlakatimiz milliy qimmatli qoğozlar bozorining mohiyati, şakllanişi, rivojlaniş jarayonlari va özіga xos xususiyatlari me'yoriy-huquqiy hujjatlar tahlili asosida yoritib berilgan. Maqolada qiyosiy tahlil usuli yordamida qimmatli qoğozlar bozoridagi ayrim muammolar aniqlangan va ularni hal etiş yuzasidan takliflar işlab çiqilgan.

Eng. - This article examines the nature, formation, stages of development and specific features of the national securities market of Uzbekistan on the basis of an analysis of legislative acts. Using the method of comparative analysis, the article identifies certain shortcomings in the country's securities market and puts forward proposals to address them.

Kalit sözlar: Keywords:

❖ *qonun, farmon, qaror, qimmatli qoğozlar, qimmatli qoğozlar bozori, aksiya, aksiyadorlar, qimmatli qoğozlar bilan operatsiyalar.*
❖ *law, decree, resolution, securities, securities market, shares, shareholders, securities transactions.*

Kiriş.

Iqtisodiyoti yuksak darajada taraqqiy topgan mamlakatlar tajribasi şuni sözsiz tasdiqlaydiki, bozor mexanizmining samaradorligi köp jihatdan iqtisodiyotning tovar-pul munosabatlari bilan qay darajada töliq qamrab olinganligiga bevosita boğliq. Bu tovar bozorlari bilan bir qatorda moliya bozorini, jumladan, uning tarkibiy qismi hisoblangan qimmatli qoğozlar bozorini şakllantiriş zarurligini anglatadi. Çunki bozor iqtisodiyoti qimmatli qoğozlarning rivojlangan aylanmasisiz amal qila olmaydi. Mamlakatimizda Özbekiston Respublikasi Prezidenti Ş.M. Mirziyoyev tomonidan milliy qimmatli qoğozlar bozorini izçil rivojlantirişga qaratilayotgan katta e'tibor hamda tijorat banklarining kapitallaşuvini oşiriş va resurs bazasini yanada mustahkamlaş böyiça amalga oşirilayotgan çora-tadbirlar investorlarning, şu jumladan, xorijiy investorlarning fond birjasida muomalada bölgan bank aksiyalari va korporativ obligatsiyalarga qiziqişi ortişiga omil böldi. Keyingi yillarda qimmatli qoğozlar bozori faoliyatini rivojlantiriş masalasiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bunga yorqin misol sifatida Özbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 16-fevraldagi "Mamlakat taraqqiyotining 2030-yilgaça möljallangan ustuvor yönalişlari doirasida islohotlarni izçil davom ettiriş va yangi bosqiçga olib çiqişning qöşimça çora-tadbirlari

tögrisida"gi PF-21-son Farmonini keltiriş mumkin. Mazkur Farmonning "Barqaror iqtisodiy ösiş orqali aholi farovonligini ta'minlaş" yönalişida "Mamlakatimizning investitsiyaviy jozibadorligini yanada oşiriş va qimmatli qoğozlar bozorini jadal rivojlantiriş" közda tutilgan [1]. Farmonda "12 ta davlat iştirokidagi korxonalar aksiyalarini xalqaro va mahalliy fond bozorlarida birlamçi (IPO) va (yoki) ikkilamçi (SPO) ommaviy taklif etiş" vazifasi belgilab qöyilgan [1]. IPO (ingl. initial public offering – birlamçi ommaviy taklif) – aksiyadorlik jamiyati aksiyalarini investitsiya vositaçilari orqali birinçi marta keng investorlar doirasiga ommaviy taklif etiş va joylaştiriş, SPO (ingl. secondary public offering – ikkilamçi ommaviy taklif) esa aksiyalari birjada muomalada bölgan kompaniya aksiyalarini takroran ommaviy taklif etişdir. Uşbu vazifani muvaffaqiyatli hal etişda qimmatli qoğozlar bozorida faoliyat yuritayotgan investitsiya institutlari operatsiyalarining ahamiyati alohida örin tutadi. Mazkur maqolada milliy qimmatli qoğozlar bozorining mohiyatini oçib beriş va uning faoliyatini rivojlantiriş yuzasidan amaliy takliflar işlab çiqiş maqsad qilingan.

Mavzuga oid adabiyotlar şarhi.

Qimmatli qoğozlar bozorining mohiyatini tadqiq etiş, xususiyatlarini oçib beriş va uni tartibga solişning nazariy va amaliy jihatlari yetakçi xorijiy iqtisodçi olimlar, jumladan, F. S. Mishkin [2], V. A. Borovkova va V. A. Borovkova [3], V.A. Galanov [4], Ya.M. Mirkin [5], Ye.V. Semenkova [6] va boşqalarning ilmiy izlanişlarida öz ifodasini topgan.

Mahalliy iqtisodçi olimlar I.I. Alimov [7], I.L. Butikov [8], R.I. Kayumov [9], Ş.Ş. Şoha'zamiy [10], K.Z. Xomitov va F.T. Muxamedov [11] va boşqalarning ilmiy izlanişlarida qimmatli qoğozlar bozorining mohiyati, uning turlari, bozorda amalga oşiriladigan operatsiyalar va ularni tartibga solişning nazariy va amaliy jihatlari tadqiq etilgan. Özbekistonlik yetuk iqtisodçi olim, professor I.L. Butikov mamlakatimizda ilk bor milliy qimmatli qoğozlar bozorining şakllanişi, mohiyati va xususiyatlarini tadqiq etib, ularni ilmiy jihatdan oçib bergan [8]. Maqola muallifi hammualliflikda tayyorlagan öquv qöllanmada respublikamizda qimmatli qoğozlar bozorining mohiyati, unda tijorat banklari tomonidan amalga oşiriladigan operatsiyalarni olib boriş tartibi va ularga qöyiladigan talablarni yoritib bergan [7]. Biroq hozirgi vaqtda respublikamizda qimmatli qoğozlar bozori faoliyatiga ta'sir körsatayotgan zamonaviy obyektiv va subyektiv, jumladan, ijobiy va salbiy omillar nisbatan kam örganilgan. Bundan taşqari, xöjalik yurituvçi subyektlarning qimmatli qoğozlar bozoridagi emissiya faoliyatiga ta'sir körsatayotgan makroiqtisodiy va mikroiqtisodiy muammolarni hal etiş va bu faoliyatni takomillaştiriş yönalişlari yetarliça işlab çiqilmagan. Mazkur maqolada uşbu muammolarni hal etiş yuzasidan mulohazalarni şakllantirişga harakat qilamiz.

Tadqiqot metodologiyasi.

Tadqiqot olib boriş va natijalarni asoslaş maqsadida mantiqiy muşohada, adabiyotlarni tanqidiy örganiş, taqqoslaş, tizimli tahlil va iqtisodiy tahlil usullaridan foydalanildi. Maqolaning uslubiy asosi sifatida xorijiy va mahalliy iqtisodçi olimlarning adabiyotlari va maqolalari tahlil etildi. Mamlakatimiz qimmatli qoğozlar bozorida amalga oşirilayotgan operatsiyalarni tahlil qilişda Özbekiston Respublikasi Markaziy banki va "Toşkent" Respublika fond birjasining rasmiy saytlaridagi ma'lumotlardan foydalanildi [12, 13].

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Dunyoning rivojlangan mamlakatlari tajribasiga nazar taşlasak, qimmatli qoğozlar bozori u yerlarda uzoq yillar davomida tabiiy ravişda yuzaga kelgan va şundan keyingina uni tartibga soluvçi qonunlar qabul qilingan. Mamlakatimizda esa milliy qimmatli qoğozlar bozori bilan birgalikda uning faoliyatini

tartibga soluvçi qonunçilik va me'yoriy-huquqiy hujjatlar ham bir vaqtda takomillaştirib borilmoqda.

Mamlakatimiz qimmatli qoğozlar bozori Özbekiston Respublikasi mustaqillikka erişganidan söng, 1990-yillarning boşida şakllana boşladi. Qimmatli qoğozlar bozorini şakllantiriş va uning faoliyatini taşkil etiş uçun zarur bilim va tajribaning yetişmasligi davlat hamda bozor iştirokçilaridan bu işni qimmatli qoğozlar bozori rivojlanişining xalqaro tajribasini çuqur örgangan va xöjalik yuritişning mamlakatda şakllangan özига xos amaliyotini umumlaştirgan holda olib borişni talab etdi. Bunda Xalqaro tiklaniş va taraqqiyot banki (Jahon banki), Yevropa tiklaniş va taraqqiyot banki, Xalqaro moliya korporatsiyasi, "Öttizlik guruhi" (öz qimmatli qoğozlar bozorini taşkil etişni boşlayotgan mamlakatlarga yagona yondaşuv va qoidalarni tavsiya etuvçi xalqaro taşkilot) kabi yirik xalqaro taşkilotlarning tavsiyalari inobatga olindi. Mazkur tavsiyalarga amal qilinişi Özbekistonga rivojlangan mamlakatlar öz qimmatli qoğozlar bozori tizimini yaratişda yöl qöygan xatolarni takrorlamaslikka yordam berdi. Uşbu tamoyilning bosqiçma-bosqiç va izçil hayotga tatbiq etilişi sezilarli natijalarga erişiş imkonini berdi.

1993-yil 2-sentabrda Özbekiston Respublikasining "Qimmatli qoğozlar va fond birjasi töğrisida"gi 918-XII-son Qonuni qabul qilindi. Mazkur qonun 4 ta bob va 27 ta moddadan iborat edi. Qonun mamlakatimizda qimmatli qoğozlarni çiqariş va ularning muomalasi, qimmatli qoğozlar bozori qatnaşçilari faoliyatini boşqariş şartlari hamda tartibini, şuningdek, Özbekiston Respublikasi iqtisodiyotini rivojlantirişga kömaklaşiş maqsadida fond birjalarini taşkil etiş va ularning faoliyat yuritiş tamoyillarini belgilab berdi. Unda aksiyalar, obligatsiyalar, xazina majburiyatlari, qimmatli qoğozlarning hosilalari, depozit sertifikatlari va veksellarni muomalaga çiqariş, fond birjalari va qimmatli qoğozlar bozorining boşqa iştirokçilarini taşkil etiş va ularning faoliyat körsatişi, qimmatli qoğozlar bozorini davlat tomonidan tartibga solişning huquqiy asoslari kabi masalalar belgilab berildi [14].

1996-yil 25-aprelda Özbekiston Respublikasining "Qimmatli qoğozlar bozorining faoliyat körsatiş mexanizmi töğrisida"gi 218-I-son Qonuni qabul qilindi. Mazkur qonun 5 ta bob va 31 ta moddadan iborat edi. Unda qimmatli qoğozlar bozorining iştirokçilari, investitsiya institutlarining xususiyatlari, şuningdek, uşbu sohadagi qonun hujjatlarini buzganlik uçun qimmatli qoğozlar bozori iştirokçilariga nisbatan qöllaniladigan jazo çoralari belgilandi. Qonunda qimmatli qoğozlar bozori qatnaşçilari – qimmatli qoğozlarning emitentlari, investorlar, investitsiya institutlari, şuningdek, ularning birlaşmalari (uyuşmalari), fond birjalari (birjalarning fond bölimlari), qimmatli qoğozlar bozorini davlat tomonidan boşqariş va muvofiqlaştiriş vakolati berilgan organlar va boşqalardan iborat ekanligi belgilab qöyildi. Mazkur qonunda qimmatli qoğozlar bozorida investitsiya institutlarining quyidagi turlari faoliyat körsatişi mumkinligi közda tutilgan: investitsiya vositaçisi (moliya brokeri va dileri); investitsiya maslahatçisi; investitsiya kompaniyasi; investitsiya fondi; boşqaruvçi kompaniya; depozitariy; hisob-kitob-kliring palatasi (taşkiloti); qimmatli qoğozlar egalarining reyestrini saqlovçi; qimmatli qoğozlarni nominal saqlovçi; investitsiya institutlarining boşqa turlari. Investitsiya institutlarini tuziş, ularning faoliyat körsatişi va tugatilişi tartibi Özbekiston Respublikasining qonun hujjatlarida belgilab qöyildi [14].

1998-yil 29-avgustda Özbekiston Respublikasining "Qimmatli qoğozlar bozorida depozitariylar faoliyati töğrisida"gi 672-I-son Qonuni qabul qilindi. Mazkur qonun 22 ta moddadan iborat edi. Qonunning maqsadi mamlakatimiz qimmatli qoğozlar bozorida depozitariylarning korporativ qimmatli qoğozlarga doir faoliyatini huquqiy jihatdan

tartibga solişdan iborat edi [14]. Şunga asosan, Özbekistonda milliy depozitariy tizimining ikki poğonali tuzilmasi şakllantirildi. U Özbekiston Respublikasi qimmatli qoğozlar davlat markaziy depozitariysi (birinçi poğona) va turli mulkçilik şakllariga asoslangan depozitariylarni (ikkinçi poğona) öz içiga oladi.

2001-yil 30-avgustda Özbekiston Respublikasining "Qimmatli qoğozlar bozorida investorlarning huquqlarini himoya qiliş töğrisida"gi 262-II-son Qonuni qabul qilindi. Mazkur qonun 22 ta moddadan iborat edi [14]. Qonunning maqsadi qimmatli qoğozlar bozorida investorlarning huquqlarini ta'minlaş bilan boğliq munosabatlarni tartibga solişdan iborat bölib, u emissiya jarayonidan ötgan hamda qimmatli qoğozlar bozorini tartibga soliş böyiça vakolatli davlat organida röyxatdan ötkazilgan aksiyalar, obligatsiyalar va boşqa qimmatli qoğozlarga investitsiya kiritiş bilan boğliq munosabatlarga tatbiq etiladi.

Nihoyat, 2008-yil 22-iyulda mamlakatimizda bosib ötilgan yillar davomida orttirilgan milliy va xorijiy tajribani çuqur tahliliy örganiş asosida, mavjud kamçiliklarni bartaraf etgan holda, 1993–2001-yillarda qabul qilingan törtta yirik qonun – "Qimmatli qoğozlar va fond birjasi töğrisida"gi, "Qimmatli qoğozlar bozorining faoliyat körsatiş mexanizmi töğrisida"gi, "Qimmatli qoğozlar bozorida depozitariylar faoliyati töğrisida"gi va "Qimmatli qoğozlar bozorida investorlarning huquqlarini himoya qiliş töğrisida"gi qonunlar takomillaştirilib, ular asosida yagona "Qimmatli qoğozlar bozori töğrisida"gi ÖRQ-163-son Qonun qabul qilindi. Mazkur qonun 9 ta bob va 64 ta moddadan iborat edi [15].

2008-yilda yuzaga kelgan jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozining salbiy oqibatlarini bartaraf etiş va ularning mamlakatimizda takrorlanişiga yöl qöymaslik maqsadida 2015-yil 3-iyundagi ÖRQ-387-son Qonun bilan "Qimmatli qoğozlar bozori töğrisida"gi Qonunning yangi tahriri tasdiqlandi. Yangi tahrirdagi qonun 9 ta bob va 64 ta moddadan iborat [16].

Özbekiston Respublikasida qimmatli qoğozlar bozori töğrisidagi qonunlar evolyutsiyasini quyidagi rasmda keltiramiz (1-rasm).



1-rasm. Özbekiston Respublikasida qimmatli qoğozlar bozori töğrisidagi qonunlar evolyutsiyasi [14–16]

Yangi tahrirdagi mazkur qonunning asosiy maqsadi milliy qimmatli qoğozlar bozori sohasidagi munosabatlarni tartibga soluvçi amaldagi qonunlarni birxillaştiriş, ularni xalqaro standartlarga yaqinlaştiriş, şuningdek, xorijiy qimmatli qoğozlar bozorlariga

integratsiyalaşuv uçun zarur bölgan barça şart-şaroitlarni yaratiş yöli bilan mamlakatimiz qimmatli qoğozlar bozorining jadal sur'atlar bilan rivojlanişini ta'minlaşdan iboratdir.

Özbekiston Respublikasida qimmatli qoğozlar bozori töğrisida avval amal qilgan qonunlar va 2015-yildagi yangi tahrirdagi qonunga muvofiq muomalada bölgan hamda muomalaga çiqarilişi közda tutilgan qimmatli qoğozlar turlarini quyidagi jadvalda keltiramiz (1-jadval).

1-jadval

Özbekistonda avval amal qilgan va 2015-yildagi qonun tahririda nazarda tutilgan qimmatli qoğozlar turlari [14, 16]

T/r	Avval amal qilgan qonunçilikka asosan qimmatli qoğozlarning turlari	2015-yildagi qonun tahririda nazarda tutilgan qimmatli qoğozlar
1	**Aksiyalar**	Aksiyalar
2	**Obligatsiyalar**	Obligatsiyalar
3	**Xazina majburiyatlari**	Ğazna majburiyatlari
4	**Depozit sertifikatlari**	Depozit sertifikatlari
5	**Veksel**	Veksel
6	**Opsion**	Opsion
7	**Fyuçers**	Qimmatli qoğozlarga doir fyuçers
8	**Boşqa moliyaviy vositalar**	Boşqa moliyaviy vositalar

Mamlakatimiz hududida muomalaga çiqarilişi mumkin bölgan qimmatli qoğozlarni mulkiy (uluşli), qarz munosabatlarini ifodalovçi va hosila qimmatli qoğozlarga ajratiş mumkin. Şuni ta'kidlaş lozimki, qimmatli qoğozlar içida faqat aksiyalar uluşli qimmatli qoğozlar tarkibiga kiradi. Ularning qolgan turlari – korporativ obligatsiyalar, ğazna majburiyatlari, depozit sertifikatlari va veksellar qarz majburiyatini ifodalovçi qimmatli qoğozlar tarkibiga kiradi. Hosila qimmatli qoğozlarga esa opsion, fyuçers va varrant kiradi. 2015-yildagi qonun tahririda mamlakatimizda obligatsiyalarning quyidagi turlarini muomalaga çiqariş belgilab qöyilgan:

–Özbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi vakolat bergan organ tomonidan çiqariladigan obligatsiyalar, şuningdek, Özbekiston Respublikasi Markaziy bankining obligatsiyalari;

–korporativ obligatsiyalar;

–infratuzilma obligatsiyalari [16].

Infratuzilma obligatsiyalari quyidagi şartlarga rioya etilgan holda çiqariladi:

–emitentning bunday obligatsiyalar çiqariş töğrisida qaror qabul qilgan sanadagi öz kapitali miqdori doirasida (agar infratuzilma obligatsiyalari summasi emitentning öz kapitali miqdoridan oşsa, emitent oşgan summa uçun ta'minot berişi şart);

–obligatsiyalar çiqarilişidan oldingi bir yil uçun moliyaviy hisobot böyiça auditorlik xulosasi mavjud bölganda;

–infratuzilma obligatsiyalarini joylaştirişdan tuşgan mablağlardan Özbekiston Respublikasi Prezidentining yoki Özbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorida nazarda tutilgan loyihani moliyalaştiriş uçun foydalanilganda [16].

Davlat uluşi 50 foiz va undan ortiq bölgan xöjalik jamiyatlari tomonidan infratuzilma obligatsiyalari Özbekiston Respublikasi Moliya vazirligi bilan kelişilgan holda çiqarilişi nazarda tutilgan [16].

Korporativ va infratuzilma obligatsiyalarini çiqarişning qöşimça şartlari qimmatli qoğozlar bozorini tartibga soliş böyiça vakolatli davlat organi tomonidan belgilanişi nazarda tutilgan [16].

Mamlakatimizda bozor mexanizmining samarali faoliyat yuritişi uçun zarur şart-şaroitlarni ta'minlaş maqsadida qimmatli qoğozlar bozorini taşkil etiş hamda tartibga soliş böyiça zarur qonunçilik va me'yoriy-

huquqiy hujjatlar qabul qilingan. Respublikamizda bosib ötilgan yillar davomida bozor iqtisodiyoti sohasidagi özgarişlarning işonçli qonunçilik bazasini şakllantiriş borasida ulkan işlar amalga oşirildi. Qimmatli qoğozlar bozori rivojlanganligiga misol sifatida mamlakatimizda deyarli barça yirik işlab çiqariş obyektlari aksiyadorlik jamiyati tamoyillari asosida taşkil etilganini keltiriş mumkin. Biroq aksiyadorlar tarkibining tahlili qimmatli qoğozlar bozoriga oid amaldagi qonunçilikda hali ayrim kamçiliklar mavjudligidan dalolat beradi. Bizning fikrimizça, amaldagi qonunçilikda eng avvalo, minoritar aksiyador tuşunçasini aniq belgilaş hamda ularning huquqlarini himoya qilişni aniq nazarda tutuvçi moddalarni işlab çiqiş lozim. Çunki mamlakatimizdagi aksiyador aholining aksariyat qismi minoritar aksiyadorlar hisoblanadi, aholi ixtiyoridagi aksiyalar esa aksiyadorlik jamiyatlari ustav kapitalining juda kiçik uluşini taşkil etadi.

Xulosa va takliflar.

Fikrimizça, yuqorida ta'kidlab ötilgan salbiy holatlarni bartaraf etiş va milliy qimmatli qoğozlar bozori faoliyatini takomillaştiriş uçun quyidagilarni amalga oşiriş maqsadga muvofiq:

1. Respublikamizdagi aksiyadorlik jamiyatlari muomalaga çiqargan aksiyalarining mahalliy va xorijiy sarmoyadorlar uçun jozibadorligini oşiriş maqsadida öz dividend siyosatini qayta körib çiqişi lozim;

2. Aksiyalar böyiça tölanadigan dividendlardan olinadigan daromad soliğini bekor qiliş maqsadga muvofiq. Buning natijasida aksiyadorlik jamiyatlarining aksiyalariga xorijiy va mahalliy sarmoyadorlarning, şu jumladan, aholining qiziqişi ortadi, deb hisoblaymiz;

3. Boşqa xöjalik subyektlariga nisbatan tijorat banklarida qulay omillar mavjudligini hisobga olib, ularning qimmatli qoğozlar bozoridagi faoliyat kölamini yanada kengaytiriş lozim;

4. Özbekiston banklari assotsiatsiyasi va Toşkent davlat iqtisodiyot universiteti qoşida tijorat banklarining qimmatli qoğozlar bilan işlovçi xodimlari uçun qayta tayyorlaş kurslarini taşkil etiş va ularga çetdan malakali mutaxassislarni jalb etiş lozim;

5. Aholining qimmatli qoğozlar bozori böyiça savodxonligini oşiriş uçun tijorat banklarining yuqori malakali xodimlari va çetdan jalb etilgan mutaxassislardan iborat sayyor tarğibot guruhlarini tuziş lozim;

6. Xususiy investorlarning (aholining) qimmatli qoğozlar bozorida erkin faoliyat körsatişi uçun qöşimça şaroitlar yaratiş maqsadida birjada minoritar aksiyadorlarga tegişli kiçik aksiyalar paketlarini sotuvga qöyiş uçun möljallangan maxsus savdo maydonçasini yaratiş lozim.

Xulosa tarzida ta'kidlaş lozimki, milliy qimmatli qoğozlar bozorini yanada rivojlantiriş uning likvidligini oşiriş, ikkilamçi bozor jarayonlarini kengaytiriş, tijorat banklaridan taşqari boşqa moliya institutlari va jismoniy şaxslar uluşini köpaytiriş, şuningdek, emitentlarni tarmoqlar böyiça diversifikatsiya qiliş hisobiga investorlar tarkibini özgartiriş va ularning sonini oşiriş bilan bevosita boğliq. Bu esa Özbekiston Respublikasi milliy qimmatli qoğozlar bozorining xalqaro miqyosda öz örnini yanada mustahkamlaşiga zamin yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar röyxati:

1. Özbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 16-fevraldagi "Mamlakat taraqqiyotining 2030-yilgaça möljallangan ustuvor yönalişlari doirasida islohotlarni izçil davom ettiriş va yangi bosqiçga olib çiqişning qöşimça çora-tadbirlari töğrisida"gi PF-21-son Farmoni. – URL: https://lex.uz/docs/-8050769

2. Mishkin F. S. The Economics of Money, Banking and Financial Markets. – 11th ed., Global ed. – Pearson Education, 2015. – 728 p. – ISBN 9781292094199.

3. Боровкова В. А., Боровкова В. А. Рынок ценных бумаг: учебное пособие. – 2-е изд., обновл. и доп. – СПб.: Питер, 2008. – 400 с.

4. Рынок ценных бумаг: учебник / под ред. В. А. Галанова, А. И. Басова. – 2-е изд., перераб. и доп. – М.: Финансы и статистика, 2005. – 446 с.

5. Миркин Я. М. Рынок ценных бумаг России: воздействие фундаментальных факторов, прогноз и политика развития. – М.: Альпина Паблишер, 2002. – 624 с.

6. Семенкова Е. В. Операции с ценными бумагами: учебник. – М.: Дело, 2009. – 485 с.

7. Alimov I. I., Ikramov A. I. Tijorat banklarining qimmatli qoğozlar bilan operatsiyalari: öquv qöllanma. – Toşkent: Iqtisodiyot, 2012. 221 b.

8. Бутиков И. Л. Рынок ценных бумаг Узбекистана: проблемы формирования и развития: монография. – Ташкент: KONSAUDITINFORM-NASHR, 2008. – 224 с.

9. Каюмов Р. И. Организация и финансирование инвестиций: учебник. – Ташкент: Fan va texnologiya, 2012. – 368 с.

10. Шохаъзамий Ш. Ш. Биржевая деятельность: учебник. – Ташкент: Ilm ziyo, 2006. – 288 с.

11. Xomitov K. Z., Muxamedov F. T. Moliya bozori va birja işi: öquv qöllanma. – Toşkent: Özbekiston faylasuflari milliy jamiyati naşriyoti, 2011. – 183 b.

12. Özbekiston Respublikasi Markaziy banki: rasmiy veb-sayt. – URL: https://cbu.uz/

13. "Toşkent" Respublika fond birjasi: rasmiy veb-sayt. – URL: https://uzse.uz/

14. Özbekiston Respublikasi tijorat banklarining qimmatli qoğozlar bilan boğliq operatsiyalariga doir qonunçilik hujjatlari töplami. – Toşkent: Özbekiston, 2003.

15. Özbekiston Respublikasining 2008-yil 22-iyuldagi "Qimmatli qoğozlar bozori töğrisida"gi ÖRQ-163-son Qonuni // Özbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi. – 2008. – 7-son. – 354-modda. – URL: https://lex.uz/docs/-1374865?ONDATE=23.07.2008

16. Özbekiston Respublikasining 2015-yil 3-iyundagi "«Qimmatli qoğozlar bozori töğrisida»gi Özbekiston Respublikasi Qonuniga özgartiş va qöşimçalar kiritiş haqida"gi ÖRQ-387-son Qonuni. – URL: https://lex.uz/docs/-2662539